

**Yoshlarda tabiatga muhabbatni uygʻotish hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan ekologik ijtimoiy loyihalarni qoʻllab-quvvatlash tartibi toʻgʻrisidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.Mazkur Nizom yoshlarda tabiatga muhabbat hissini uygʻotish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik madaniyat darajasini yuksaltirish, ularni tabiat va uning resurslariga ehtiyotkorona munosabatda boʻlish ruhida tarbiyalashga qaratilgan loyihalarni (keyingi oʻrinlarda – ekologik loyihalar) qoʻllab-quvvatlash tartibini belgilaydi.

2.Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Ariza beruvchi – ekologik loyihalarni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan, ekologik loyihasini qoʻllab-quvvatlashni soʻrab murojaat qilgan volontyorlik guruhi, yoki qonunchilikka muvofiq tashkil etilgan va volontyorlik faoliyatini amalga oshiruvchi nodavlat notijorat tashkiloti.

Buyurtmachi – Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi “Yashil tashabbuslar”ni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi.

Ekspertlar kengashi – tanlov doirasida kelib tushgan ekologik loyihalarini koʻrib chiquvchi va belgilangan mezonlar asosida baholash ishlarini amalga oshiruvchi, tegishli soha mutaxassislaridan iborat tarkibda tuziladigan guruh.

Ishchi organ – Tanlov natijasiga koʻra gʻolib deb topilgan ishtirokchilar bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq moliyalashtirilgan mablagʻlarni maqsadli sarflanishini monitoring qiluvchi Yoshlar ishlari agentligining direktorining buyrugʻi bilan yetti nafardan kam boʻlmagan masʼul xodimlar va soha mutaxassislari.

Ekologik loyiha – Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-oktyabrdagi 631-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi “Yashil tashabbuslar”ni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi toʻgʻrisida nizom”ning 9-bandi ikkinchi va toʻrtinchi xatboshilarida belgilangan yoʻnalishlar boʻyicha amalga oshiriladigan ekologik loyiha.

Bunda, eko-volontyorlar tomonidan yoshlarda ekologik bilimlarni oshirishga qaratilgan seminarlar dasturi, chiqindilarni yigʻish va toʻgʻri taqsimlash kabi aksiyalar, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga bagʻishlangan turkum tadbirlar hamda oʻz mahallasi yoki taʼlim muassasasida daraxt koʻchatlarni ekish, shuningdek, hayvonot olamini muhofaza qilish va oʻsimliklarni parvarishlashga oid loyihalar.

3.Ushbu Nizomga muvofiq tasdiqlangan loyihalar Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi “Yashil tashabbuslar”ni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi (keyingi oʻrinlarda – Jamgʻarma) mablagʻlari hisobidan va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ragʻbatlantiriladi.

2-bob. Tanlovni e'lon qilish va kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish.

4.Buyurtmachi tomonidan volontyorlik loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tanlov o'tkazilishi to'g'risida har yili e'lon beriladi.

Tanlovning shartlari, yo'nalishlari hamda loyihalar bo'yicha hujjatlarni topshirish muddatlari buyurtmachining rasmiy saytida, yashiltashabbus.uz elektron platformasi hamda zarur hollarda, boshqa ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi.

5.Mazkur elektron platformada har bir ishtirokchi alohida shaxsiy profil yaratadi. Ishtirokchilarning loyihalari, taqdimot materiallari va boshqa tegishli hujjatlari ushbu shaxsiy profilga kirish orqali yuklanadi hamda ishtirokchilarning ma'lumotlari maxfiylik va axborot xavfsizligi talablari asosida saqlanadi.

Tanlov bo'yicha hujjatlarni qabul qilish muddati 30 kungacha etib belgilanadi.

6. Tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'londa quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

tanlov buyurtmachisining nomi va manzili;

tanlov yo'nalishi (yo'nalishlari);

har bir yo'nalish bo'yicha ekologik loyihalarini qo'llab-quvvatlashga ajratiladigan mablag'lar miqdori;

tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan asosiy shartlar;

tanlov ishtirokchilaridan hujjatlarni qabul qilishning joyi, usuli, oxirgi sanasi va vaqti;

Bunda, har bir loyihani qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan mablag' miqdori bazaviy hisoblash miqdorining 50 barobaridan oshmasligi lozim.

7.Ariza beruvchi e'lon qilingan tanlovdagi har bir yo'nalish bo'yicha bitta loyihalarni yuborishi mumkin.

8.Tanlovda ishtirok etish uchun ariza beruvchi tanlov e'lonida ko'rsatilgan internet tarmog'idagi elektron manzilga kirib, ushbu Nizomga 1-ilogaga muvofiq arizani elektron tarzda to'ldiradi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga ariza beruvchi mas'ul hisoblanadi.

9.Yoshlar ishlari agentligida tuziladigan ishchi organ **10 ish kunida** tanlov bo'yicha kelib tushgan loyihalar hujjatlarini qabul qiladi, baholashga tayyorlab, Ekspertlar kengashiga kiritadi.

Ekspertlar kengashi taqdim etilgan loyihalarni dastlabki va yakuniy baholashni amalga oshiradi.

3-bob. Ekspertlar kengashi faoliyatini tashkil etish

10.Yoshlar ishlari agentligida tarkibi Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadigan Ekspertlar kengashi tarkibi tuziladi.

11.Ekspertlar kengashi tarkibi kamida 5 nafar ekspertlardan shakllantiriladi.

12.Ekspertlar kengashi tarkibiga tanlov yo‘nalishi bo‘yicha vakolatli vazirlik va idoralarning malakali xodimlari, shu jumladan, ilmiy, ta‘lim muassasalari xodimlari, faol volontyorlar va boshqa mutaxassislar ekspert sifatida jalb etilishi mumkin.

13.Ekspertlar kengashi a‘zolari baholash uchun taqdim etilgan loyihalarni har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqib, baholash uchun javobgar.

14.Ekspertlar kengashi yig‘ilishlari uning a‘zolari bevosita yig‘ilib, Zoom platformasi vositasida yoki sirtidan (loyihalarni elektron tizim orqali o‘rganib, baholash yo‘li bilan) o‘tkazilishi mumkin.

15.Ishchi organ Ekspertlar kengashi faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq quyidagi vazifalarni bajaradi:

Tanlov bo‘yicha kelib tushgan loyihalarni baholash uchun Ekspertlar kengashiga taqdim etadi;

Ekspertlar kengashi yig‘ilishlarini tashkil etadi va uning a‘zolarini yig‘ilish o‘tkaziladigan sana, vaqti va, joyi haqida xabardor qiladi;

Ekspertlar kengashi yig‘ilishi bayonnomalarini tuzadi;

Ekspertlar kengashining o‘z vazifalarini lozim darajada bajarmayotgan a‘zolarini uning tarkibidan chiqarish va boshqa nomzodni ushbu tarkibga kiritish to‘g‘risida Yoshlar ishlari agentligi direktoriga asoslangan taklif kiritadi;

Ekspertlar kengashining ekologik loyihalarini rag‘batlantirish to‘g‘risidagi bayonnomasi tuziladi.

16.Ekspertlar Kengash yig‘ilishi Kengash a‘zolarining kamida yarmi (toq sondagi) qatnashganda huquqiy vakolatli bo‘ladi. Bunda, ekspertlar soni 5 nafardan kam bo‘lmazligi lozim.

4-bob. Loyihalarni dastlabki va yakuniy baholash

17. Hujjatlarni saralash jarayonida e‘londa belgilangan talablarga nomuvofiq bo‘lgan yoki kamchiliklar bilan taqdim etilgan hujjatlar bo‘yicha ishchi organ tomonidan dalolatnoma tuziladi. Loyihalardagi kamchiliklar to‘g‘risida ma‘lumotlar ushbu dalolatnomaga ilova qilinadi.

Bunda, loyihalarning aniq va batafsil yoritilganligi, samaradorligi, ijtimoiy ahamiyati, amaliyotga tatbiq etishning maqsadga muvofiqligi, ariza beruvchining taqdim qilgan loyihasini amalga oshirish qobiliyati (amalga oshirgan volontyorlik faoliyati) kabi mezonlar asosida dastlabki tarzda baholaydi.

Loyihalarni dastlabki baholashda tanlovning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib Ekspertlar kengashi tomonidan baholashning boshqa mezonlari ham belgilanishi mumkin.

Tanlov bo‘yicha kelib tushgan loyihalarning hajmi kattaligi sababli Ekspertlar kengashi tomonidan ularni belgilangan muddatda dastlabki baholash imkoni bo‘lmaganda Ekspertlar kengashi bayoniga asosan loyihalarni baholash muddati qo‘shimcha **20 ish kuniga qadar** uzaytirilishi mumkin.

18.Dastlabki baholash natijalari bo'yicha Ekspertlar kengashi tomonidan bayonnoma tuziladi.

Loyihalarni dastlabki baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi. Bunda, 70 va undan yuqori ball to'plagan loyihalar yakuniy baholash bosqichiga o'tkaziladi.

19.Loyihalarni yakuniy baholash ariza beruvchi tomonidan loyihaning qanday tarzda bajarilishi to'g'risida Ekspertlar kengashiga taqdimoti asosida amalga oshiriladi.

20.Yakuniy baholash "Zoom" platformasi tarzida amalga oshiriladi. Ariza beruvchiga loyihani taqdimot qilishi uchun 5 daqiqagacha vaqt beriladi. Ekspertlar tomonidan berilgan savollarga javob berish muddati ushbu muddatga kirmaydi. Yakuniy baholash mazkur nizomning 2-ilovasidagi mezonlar asosida baholanadi.

21.Yakuniy baholash natijalari bo'yicha bayonnoma tuziladi. Bayonnomada taqdim etilgan loyihalarni rag'batlantirishni tavsiya etish yoki tavsiya etmaslik to'g'risida asoslantirilgan xulosa bayon qilinadi.

Bunda, Ekspertlar kengashi tomonidan rag'batlantirishga tavsiya etiladigan loyihalar soni tanlov e'lonida belgilangan rag'batlantiriladigan loyihalar sonidan ortib ketishi mumkin.

5-bob. Loyihalarni rag'batlantirish

22.Ekspertlar kengashi tomonidan yakuniy baholash natijalari bo'yicha bayonnoma tuziladi va ushbu loyihalarni rag'batlantirish masalasi bo'yicha qaror qabul qiladi.

Ushbu qaror bir oy muddatda Agentlik direktori buyrug'i bilan ijroga qaratiladi.

Bunda, ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar Jamg'arma hisobidan ushbu loyiha amalga oshiriladigan hududdagi Yoshlar ishlari agentligining hududiy boshqarmalari huzuridagi jamg'armalarga o'tkazib beriladi.

23.Tanlov g'olibi bo'lgan ariza beruvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar Yoshlar ishlari agentligining rasmiy veb-sayti hamda yashiltashabbus.uz platformasida e'lon qilinadi.

24.Tanlov hujjatlari qanday shaklda qabul qilingan bo'lsa, ularning shunday shaklda saqlanishi, shuningdek, Ekspertlar kengashi yig'ilish bayonnomalarining saqlanishi uchun ishchi organ mas'ul hisoblanadi.

25.Ekspertlar kengashi tomonidan g'olib deb topilgan loyihalarni rag'batlantirish bo'yicha, pul mablag'lari 20 ish kuni ichida ularning nomiga ochilgan bank kartasiga o'tkazib beriladi.

Loyihalarni bajarish uchun, Yoshlar ishlari agentligi hamda loyihaning g'olibi o'rtasida ikki tomonlama shartnoma tuziladi.

Loyihalarni amalga oshirishda hisob-kitoblar va moliyaviy rejaning shakllari, tartibi, xarajatlarning hajmi hamda turlarini aniqlash tartibi Ekspertlar guruhi tomonidan belgilanadi.

Ajratilgan mablag'lar ekologik loyihalarni samarali olib borishga, shuningdek, ish haqidan tashqari, umumiy mablag'ning kamida 60 foizi kerakli anjomlar, xomashyolar hamda boshqa zarur materiallarni xarid qilish va natijada loyihani yuqori saviyada o'tkazishga yo'naltirilishi lozim.

6-bob. Ajratilgan mablag'larni monitoring qilish tartibi.

26.Loyihalarning ijrochilari shartnomada belgilangan muddatda ishchi organga hisobot taqdim etadi hamda taqdim etilgan hisobotlar ishchi organ tomonidan monitoring qilinadi. Bunda, ishchi organ tarkibiga qo'shimcha ravishda soha mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

27.Ishchi organ besh ish kuni muddatida monitoring natijalari bo'yicha umumlashtirilgan hisobotni Yoshlar ishlari agentligi direktoriga taqdim qiladi.

28.Shartnomada belgilangan muddatda rejalashtirilgan ishlar bajarilmaganligi hamda loyihalar bo'yicha hisobotlarni taqdim etish bo'yicha muddatlar buzilishi moliyalashtirishni to'xtatish, shuningdek, tomonlar o'rtasida tuzilgan shartnomani bekor qilish uchun asos bo'ladi.

7-bob. Ekologik loyihasini amalga oshirishga ko'maklashish va hisobot topshirish

29.Ekologik loyihasini amalga oshirish uchun loyiha egasiga ko'maklashish vazifasi Agentlik hududiy boshqarmasining Bolalar, xotin-qizlar, ta'limdagi yoshlarni, volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassisi zimmasiga, loyihani ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritishga ko'maklashish vazifasi Yoshlar media loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha bosh mutaxassis zimmasiga yuklatiladi.

30.Ishtirokchilar Jamg'arma tomonidan e'lon qilingan boshqa tanlovlarda mazkur tanlovga topshirgan loyihasi bilan ishtirok etishga yo'l qo'yilmaydi.

31.Loyiha g'oliblari mablag'lar sarfi bo'yicha barcha turdagi moliyaviy xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni (chek, hisob-faktura va boshqa hujjatlar) hamda amalga oshiriyotgan ishlarining foto-lavhalarini yashiltashabbus.uz saytida ochilgan shaxsiy akkauntiga har oyning 5-sanasiga qadar yuklab borishlari talab etiladi. Ajratilgan mablag'larning maqsadsiz sarflangani aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda o'rganish o'tkazilib, ajratilgan mablag'ni qaytarish choralari ko'riladi.

32.Ekologik loyihasini amalga oshirish uchun Jamg'arma hisobidan ajratilgan mablag'lar ortib qolganda (iqtisod qilinganda) ushbu mablag'lar loyiha amalga oshirilgandan so'ng 5 ish kunida Jamg'armaga qaytariladi.

33.Agentlik tanlov yakunidan so'ng bir oy muddatda Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligiga amalga oshirilgan ishlar tanlovda qatnashgan loyihalar va g'oliblari haqida ma'lumotlarni yuboradi.

Yoshlarda tabiatga muhabbatni uygʻotish
hamda atrof-muhitni muhofaza qilishga
qaratilgan ekologik ijtimoiy loyihalarni
qoʻllab-quvvatlash tartibi toʻgʻrisidagi
Nizomiga 2-ilova

T/r	Baholash mezon	Maksimal ball
1.	Ishtirokchi(lar) tomonidan shu vaqtga qadar amalga oshirgan ekologik loyihalarning soni va sifati.	25 ball
2.	Ishtirokchi(lar) tomonidan taqdim etilayotgan loyihaning dolzarbligi, ijtimoiy ahamiyati va natijadorligi.	30 ball
3.	Loyihaning amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlari, bunda, loyihani amalga oshirish joyining mavjudligi, muddatlari belgilanganligi va hamkorlarni jalb etish qobiliyati.	25 ball
4.	Ishtirokchi(lar)ning ekologik savodxonlikni bilish darajasi	20 ball
Jami:		100 ball